

“FANLAR AKADEMIYASI KUTUBXONASIGA BOMBA TUSHIBDI” maqolasiga RASMIY MUNOSABAT

Kuni kecha facebook ijtimoiy tarmog'ida “FANLAR AKADEMIYASI KUTUBXONASIGA BOMBA TUSHIBDI” nomli maqola e'lon qilindi (<https://www.facebook.com/rozmetov.doniyor/posts/10228063275746517>). Ushbu maqola bo'yicha Fanlar akademiyasi quyidagilarni ma'lum qiladi:

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 1-noyabrdagi “Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3365-son qarori asosida Fanlar akademiyasining ilmiy-tadqiqot muassasalari bosqichma-bosqich ta'mirlanmoqda va moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda. Xususan, 2018 - 2021-yillarda Fanlar akademiyasi tasarrufidagi 25 ta ilmiy-tadqiqot muassasalari binolari ta'mirlandi va bu kabi ishlar davom ettirilmoqda.

Jumladan, maqolada keltirilgan kutubxona fotosuratlaridan shuni anglash mumkinki, bugungi kunda ushbu binoda ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mazkur FA Fundamental kutubxonasi 2021-2023-yillarda to'liq ta'mirdan chiqarilishi rejalashtirilgan. Hozirgi kunda binoning tomi hamda isitish tizimi ta'mirlangan.

Aniq ma'lumotlarga asoslanmagan xabarlarini tarqatib aholida salbiy fikr uyg'otish bu vatanparvarlik hisoblanmaydi.